

**Xorazm Milliy tabiat bog'ida muhofazaga olingan sut emizuvchilar turlari
va ularning bioekologik xususiyatlari.**

K.R.Yo'ldashev - Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat Universiteti
biologiya kafedrasi dotsenti, b.f.f.d.kopalboyoldashev@gmail.com

Z.Sh.Nazarboyeva- Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat Universiteti
biologiya yo'nalishi talabasi.zebonazarboyeva05@gmail.com

U.A.Jumanazarova- Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat
Universiteti biologiya yo'nalishi talabasi.umrinisojumanazarova03@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Xorazm Milliy tabiat bog'ining tashkil qilinishi va unda muxofaza qilinayotgan qizil kitobga kiritilgan sut emizuvchilar turlarining bioekologik xususiyatlari bayon qilingan. Xorazm milliy tabiat bog'ida hozirgi kunda 30 dan ortiq sut emizuvchi muxofazaga olingan. Maqolada ularning 9 turi haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: Milliy bog', qizil kitob, tabiat bog'i, ekologik ong, qayr to'qayzorlar, zaif tur.

Аннотация. В данной статье рассматриваются история создания Хорезмского национального природного парка и биоэкологические особенности видов млекопитающих, занесённых в Красную книгу и находящихся под охраной на его территории. В настоящее время в Хорезмском национальном природном парке охраняется более 30 видов млекопитающих. В статье представлена информация о 9 из них.

Ключевые слова: национальный парк, Красная книга, природный парк, экологическое сознание, тугайные заросли, уязвимый вид.

Annotation. This article describes the establishment of the Khorezm National Nature Park and the bioecological characteristics of mammal species listed in the Red Book and protected within the park. Currently, more than 30 species of mammals are under protection in the Khorezm National Nature Park. The article provides information on 9 of these species.

Keywords: national park, Red Book, nature park, ecological awareness, tugai forests, vulnerable species.



Krish. Hayvonot dunyosini huquqiy muhofaza qilish deganda, Konstitutsiya, qonunlar va qonun osti me'yoriy hujjatlarda o'z aksini topgan qoidalar va bu qoidalar asosida hayvonot olamini huquqiy nuqtai nazardan himoya etishdir. Chunonchi, hayvonot olamini huquqiy muhofaza qilishda huquqning ro'li beqiyosdir. Bu borada davlat tomonidan ko'riladigan tadbirlarda muhofaza etiladigan Hududlarni belgilash, muhofaza qilish haqida qonunlar chiqarish bu qonunlarning amalga oshirilishini ta'minlash va boshqalar kiradi.

O'rta Osiyo regionini o'z hayvonot va o'simlik olamining xilma xilligi va boyligi bilan ajralib turadi. Masalan, O'zbekistonda 660 dan ortiq umurtqali hayvonlar, shu jumladan sutemizuvchilar – 102 tur, qushlar-435 tur, sudralib yuruvchilar – 58 turi, suvda va quruqlikda yashovchilarning - 3 turi uchraydi. Tabiiy turlardagi hayvonlar turli sabablarga ko'ra kamayib bormoqda. Hayvonlarni muhofaza qilish va ko'paytirish hozirgi kunning eng dolzarb muammolaridan biridir.

Natija va munozara. Amudaryo deltasida tabiiy to'qay resurslarini muhofaza qilish, ularni qayta tiklash hamda Xorazm viloyatidagi cho'l ekotizimlarini saqlash va viloyatda ekoturizmni yanada rivojlantirish maqsadida, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 14-dekabrda ming-sonli "Xorazm Milliy tabiat bog'ini tashkil qilish to'g'risida" gi qarori qabul qilindi.

"Xorazm Milliy tabiat bog'i"ni tashkil qilish uchun tabiiy hududlardan, Xiva (1163 ga), Tuproqqal'a (23258 ga), Xonqa (45.0 ga), Yangibozor (70043.2 ga), Urganch (197.5 ga) tumanlaridan jami 25408 ga yer ajratildi.

Bugungi kunda tabiat bog'i o'z hududlarida tabiatni asrash, muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni kengaytirish va uni qayta tiklash bo'yicha ilmiy, amaliy ishlar amalga oshirilmoqda.

Tabiiy obyektlar va majmualarini muhofaza qilish, qayta tiklash, qo'riqlash ishlarini tashkillashtirilgan. noyob va yo'q bo'lib ketish xavfi ostidagi o'simlik va hayvonot dunyosini saqlab qolish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari yo'lga qo'yildi, endemik turlar aniqlanib, noyob o'simliklar elektron bazasi, 500 ga yaqin o'simlik gerbariylari tayyorlanib, ilmiy faoliyat bilan shug'ullanuvchilar uchun ilmiy tadqiqot bazasi shakllandi. Tadqiqotchilarimiz ilmiy xodimlarimiz tomonidan atrof-muhit monitoringini uzluksiz amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga aholining ekologik ta'lim-tarbiya tadbirlariga ko'maklashish, ekologik ong ekologik madaniyat darajasini yuksaltirish va targ'ibot-tashviqot ishlari o'tkazib borilmoqda. Xorazm Milliy tabiat bog'i hududlarida jami umurtqali hayvon turlarining 246 tasi mavjud va ulardan 53 tasi xalqaro va O'zbekiston " Qizil kitob"iga kiritilgan turlari doimiy va mavsumiy

uchraydi. Tabiat bog`ida yuksak o`simliklar hamda umurtqasiz va umrtqali hayvonlar muhofaza qilinadi. Hozirda qizil kitobga kiritilgan sutemizuvchilarning quyidagi turlari muhofazaga olingan.

Xorazm milliy tabiat bog`ida muhozaga olingan sutemizuvchilar sinfiga mansub turlar ro`yxati va muhofazaga oid maqomi.(2025 y)

Hayvonni o`zbekcha va ilmiy nomi.	Maqomi	Yashash joyi
Uzun ignali kirpi (Tipratikan) Brandt's Hedgehog	3 (NT): Zaifga yaqin, mozaik tarqalgan, kam sonli tur.	Tuproqli cho`llar, tog` etaklari, vohalar.
Geptner mitti qo`shoyog`i Thick-tailed Pygmy Jerboa	2 (VU:R): Zaif, tabiatan kamyob, lokal tarqalgan tur. TMXI Qizil ro`yxatiga kiritilgan [DD].	Mustahkamlashgan qumlar bilan to`silgan va siyrak buta o`simliklari bilan qoplangan taqirsimon tuproqli allyuvial tekislik qismlari.
Qorsak Corsac Fox	2 (VU:D): Zaif, qisqarib borayotgan, mozaik tarqalgan kenja tur.	Loyli sahrolar, tog` etaklari va adirlar.
Sariq sassiqkuzan Steppe or Asiatic Polecat	2 (VU:D): Zaif, qisqarib borayotgan, mozaik tarqalgan tur.	Tuproqli cho`llar, adirlar va tog` yonbag`irlari. Ba`zan qumli cho`llarda ham uchratish mumkin. Barcha yashash joylari atrofida ko`pincha sariq yumronqoziq makonlari bo`ladi.



Olakuzan Marbled Polecat	2 (VU:D): Zaif, qisqarib bo-rayotgan; keng, lekin sporadik tarqalgan tabiatan kam sonli tur. 1983 yilda milliy Qizil kitobga kiritilgan, lekin keyingi nashrlardan chiqarib tashlangan. TMXI Qizil ro'yxatiga kiritilgan [VU].	Har xil cho'l va yarimcho'llar, daryo va ko'llar qirg'oqlari, tog' yonbag'irlari, tog' cho'llari
Qum mushugi Sand Cat	1 (CR): Butunlay yo'q bo'lib ketish arafasida turgan, mozaik tarqalgan kenja tur.	Yarim mustahkamlashgan, mustahkamlashgan past-baland qumlar.
Qoraquloq Turkmen Caracal (Desert Lynx)	1 (CR): Butunlay yo'q bo'lib ketish arafasida turgan, mozaik tarqalgan kenja tur.	Cho'llarning barxanli va mustahkamlashgan qumli qismlari, gipslashgan tekisliklar, chinklar, ba'zan cho'llashgan tog' etaklari va to'qayzorlar.
Xongul (Buxoro bug'usi) Bactrian (Bukhara) Red Deer	1 (EN): Yo'q bo'lib ketayotgan, lokal tarqalgan kenja tur.	Qayir to'qayzorlari, ba'zan ularga yondosh qumli cho'llar. Tog' daryolari vodiysidan tog' etaklariga chiqishi kuzatilgan.
Jayron Goitered Gazelle	2 (VU:D): Zaif, qisqarib borayotgan, mozaik tarqalgan kenja tur. TMXI Qizil ro'yxatiga kiritilgan [VU].	Tekis yoki past-baland cho'llar, yarimcho'llar va qir-adirlar, cho'llashgan tog'oldi hududlari. Shag'alli va



		sertuproq yerlarni afzal ko'radi. Qishda o'nqir-cho'nqir relefli joylarda, yassi tekislik daralarida va chuqurliklarida yashaydi; to'qayli o'rmon chekkalariga, jarliklar va tekisliklarga kiradi.
--	--	--

Xulosa. Xorazm Milliy tabiat bog'i – alohida qo'riqlanadigan, inson faoliyati ta'siriga uchramagan va tabiiy manzaralari saqlangan, o'simlik va hayvonot olami va ularning yashash muhiti, ilmiy va o'quv amaliy ahamiyatiga ega bo'lgan katta tabiiy hudud hisoblanadi. Milliy bog'da landshaftlarni tiklash, noyob va yo'qolib borayotgan hayvonlar va o'simliklar turlarini saqlash ishlari bajarilmoqda. Tabiat bog'i hududining kengayib borishi noyob sutemizuvchilar, qushlar va boshqa hayvonlarni muhoza qilish hamda ko'paytirish imkoniyatini yanada oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

- 1.Dadaev S ,Saparov Q ,Zoologiya "Turon-Ikbol" nashriyoti. Toshkent 2019 y.
- 2.O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobi "Chinor ENK" nashriyoti Toshkent.2019y.
- 3.J.Laxanov.O'zbekistonnig umurtqali hayvonlari aniqlagichi.Fan va texnologiya nashriyoti.Toshkent 2013 y.
- 4.Т.Ф.Орипов. Хоразмнинг ноёб ҳайвонлари. Тошкент .2006 й.